



THE PARTICIPATION OF WOMEN IN PRODUCTION AND INDUSTRIAL SECTORS IN SAMARKAND REGION IN THE 1920S–1930S

Saodat Bozorboyevna Abdujabborova

PhD Researcher at Samarkand State University named after Sharof Rashidov

sabdujabborova1@gmail.com

Science ID: MSN-0726-0452

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Samarkand Region, women, production, industry, industrialization, handicrafts, cooperatives, artels.

Received: 04.09.26

Accepted: 05.09.26

Published: 06.09.26

Abstract: This article analyzes the participation of women in the production and industrial sectors of the Samarkand Region during the 1920s and 1930s based on historical sources, archival documents, and statistical data. The study examines the main directions of women's involvement in production within the framework of the Soviet industrialization policy, as well as their employment at industrial enterprises, handicraft cooperatives, and artels. Particular attention is paid to women's vocational training, professional development, their share in industrial production, and the socio-economic factors that influenced their labor activities. The findings demonstrate that women's participation in the production and industrial sectors of the Samarkand Region constituted an integral part of the Soviet industrialization policy, contributing to increased economic activity while simultaneously giving rise to a number of social challenges related to working conditions and social welfare.

XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA XOTIN-QIZLARNING ISHLAB CHIQUARISH VA SANOAT SOHALARIDAGI ISHTIROKI

Saodat Bozorboyevna Abdujabborova

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

tayanch doktoranti

sabdujabborova1@gmail.com

Ilmiy identifikatsiya raqami: MSN-0726-0452

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Samarqand viloyati, xotin-qizlar, ishlab chiqarish, sanoat, sanoatlashtirish, hunarmandchilik, kooperativ, artel.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 20–30-yillarida Samarqand viloyatida xotin-qizlarning ishlab chiqarish va sanoat sohalaridagi ishtiroki tarixiy manbalar, arxiv hujjatlari hamda statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda sovet hokimiyatining sanoatlashtirish siyosati doirasida xotin-qizlarni ishlab chiqarishga jalb etishning asosiy yo'nalishlari, ularning sanoat korxonalari, hunarmandchilik kooperativlari va artellardagi mehnat faoliyati yoritilgan. Shuningdek, xotin-qizlarning kasbiy tayyorgarligi, malaka oshirish tizimi, ishlab chiqarishdagi ulushi hamda mehnat faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida Samarqand viloyatida xotin-qizlarning ishlab chiqarish va sanoat sohalaridagi ishtiroki sanoatlashtirish siyosati bilan uzviy bog'liq holda kechgani, bu jarayon ayollarning iqtisodiy faolligini oshirish bilan birga mehnat sharoiti va ijtimoiy ta'minot bilan bog'liq qator muammolarni ham yuzaga keltirgani aniqlangan.

УЧАСТИЕ ЖЕНЩИН В ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ И ПРОМЫШЛЕННОЙ СФЕРАХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В 1920–1930-Е ГОДЫ

Саодат Бозорбоевна Абдужабборова

Докторант Самаркандского государственного университета

имени Шарофа Рашидова

sabdujabborova1@gmail.com

Научный идентификационный номер: MSN-0726-0452

Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Самаркандская область, женщины, производство, промышленность, индустриализация, ремесленничество, кооперация, артель.

Аннотация: В данной статье на основе исторических источников, архивных документов и статистических материалов анализируется участие женщин Самаркандской области в производственной и промышленной сферах в 1920–1930-е годы XX века. Исследуются основные направления привлечения женщин к производству в рамках политики индустриализации советской власти, их

трудовая деятельность на промышленных предприятиях, в ремесленных кооперативах и артелях. Особое внимание уделено вопросам профессиональной подготовки женщин, системе повышения квалификации, их удельному весу в промышленном производстве, а также социально-экономическим факторам, оказавшим влияние на их трудовую деятельность. В результате исследования установлено, что участие женщин Самаркандской области в производственной и промышленной сферах было неотъемлемой частью политики индустриализации, способствовало повышению их экономической активности, однако сопровождалось рядом социальных проблем, связанных с условиями труда и социальным обеспечением.

Kirish. O‘zbekiston uchun sanoat qurilishini keng sur’atda jadallashtirish nihoyatda zarur edi. Chunki respublika iqtisodiyoti XX asr 20-30-yillar chegarasida ham agrar xususiyatiga egaligicha qolayotgan edi. Qishloq xo‘jaligining salmog‘i 62,6%, sanoatning salmog‘i 38,4%ni tashkil etar va u ham qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlashga asoslangan edi. Bular asosan sanoatlashtirish, texnika va mashinalarni joriy etish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va modernizatsiya qilishdan iborat edi. Ishlab chiqarishning o‘sishi, texnik bazaning mustahkamlanishi yangi mehnat shakllarini, malakali kadrlar tayyorlashni talab qildi.

Muhokama va natijalar. Sanoat uchun kadrlar tayyorlash vazifasi respublika, kasaba uyushma va komsomol tashkilotlari oldidagi muhim vazifaga aylandi. Yirik sanoat korxonalari va yangi qurilish obyektlari huzurida ishchilar ta’lim markazi tashkil etilib, bu yerda ishchilar dastlab savod o‘rgatish darslarida o‘z savodsizliklarini bartaraf etib, keyinchalik umumta’lim maktablarida o‘qishni davom ettirishlari mumkin bo‘lgan. Yirik fabrika va zavodlar mahalliy millatlardan ishchilar tayyorlaydigan temirchilik korxonalariga aylantirildi. Birinchi besh yillik rejalar yillarida malakali kadrlar tayyorlash tizimida zavod, qurilish, sovxoz, konchilikda ishlovchi ishchilar alohida o‘rin tuta boshladi [1, 144-varoq]. Ishchilar nisbatan oddiy kasblarni ommaviy kasblar bo‘yicha shogirdlik maktablarida, qo‘shimcha kasb-hunar ta’lim kurslarida, ishchilar uchun texnik maktablarda, ishchi materiallar maktablarida va o‘quv kurslarida o‘rganishgan. Partiya va hukumat tomonidan amalga oshirilgan g‘ayratli chora-tadbirlar tezda o‘z samarasini berdi: birinchi besh yillikning o‘zida sanoat korxonalarida 60 ming nafar malakali ishchilar tayyorlandi [2, 150-v].

XX asrning 20-yillarida o'ta ziddiyatli, inqilobiy o'zgarishlar muhim rol o'ynagan jamiyatda ayollarga munosabat kommunistik partiya ko'rsatmasi va talab-ehtiyojidan kelib chiqib hal qilindi [3, 50-v]. 20-yillarning ikkinchi yarmidan sovet hokimiyati o'zining moddiy-iqtisodiy bazasini mustahkamlash zaruriyatidan kelib chiqib, paranjidan ozod bo'lgan xotin-qizlarni ishlab chiqarishning barcha sohalariga faol jalb qilishni istiqboliy vazifa etib belgiladi. Shuning uchun unga xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi omil sifatida qaraldi. Shu maqsadda mahalliy xotin-qiz kadrlardan ishchilar sinfini to'ldirishga kirishildi [4, 201-b].

1919-yilda 109 kustar ayol "Xotin-qizlar mehnati" arteliga jalb qilindi. Biroq mahalliy millat xotin-qiz kustarlarini artellarga jalb qilish ayollar mehnati ishlatiladigan kustar ishlab chiqarishning yo'qligi tufayli sust bordi. O'zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Komiteti va hukumati xotin-qizlarni ozod qilish uchun keskin kurash olib bordi. Bu ishga Samarqand partiya tashkiloti va mehnatkashlari katta hissa qo'shdilar. O'zbekiston Kommunistik partiyasining chaqirig'iga javoban poytaxt xotin-qizlari oilaviy munosabatlarni, nikohni, huquqiy va mulkiy holatni tartibga solish tadbirlarini amalga oshirish yo'lida faol qo'shildilar [5, 14-b].

XX asr boshlarida Samarqand shahri respublikaning boshqa viloyatlaridan farqliroq, siyosiy va ma'muriy markaz bo'lganligi sabab, bu yerda markaziy, xo'jalik va boshqa tashkilotlar joylashtirilgan edi. Samarqand shahri O'zbekiston SSRning poytaxti bo'lib turgan yillar va undan keyingi hayotida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Samarqand okrugida savdo-sotiq ishlari o'ziga xos ravishda olib borilgan. Okrugda 50 ta bozor va 3500 ta savdo shahobchalarini bo'lgan. Savdo shahobchalarining 109 tasi davlatniki, 103 tasi tijorat va 3288 tasi xususiy edi. 1924-yilda viloyatda 58 ta davlat sanoat korxonalari, 8 kooperativ, 72 xususiy korxonalar ishlab turgan edi. Ularda jami 4178 ishchi va xizmatchi bo'lib, 3 ta davlat va 13 ta xususiy fabrika va zavodlarda esa ishlar tashkillashtirilmagan. Sanoat oyoqqa turib kelayotgan dastlabki davrlarda zavod va fabrikalarning ishchi kadrlar saflari, asosan shahardagi ishsizlar va qishloq joylardan ko'chib kelayotgan kishilar hisobiga ortib bordi [6, 110-b].

Samarqand viloyatidagi "To'qimachilik" korxonasida Sh. Muratov ishlab chiqaruvchi, N. Aleksandrova kotiba, G. Melnikov ombor nazoratchisi, I. Bezzubov yuk tashuvchi, D. Nikolayevna sanitar-tozalovchi bo'lib ishlagan [7, 81-v]. Bundan ko'rish mumkinki, 1920-yillarda Samarqand viloyatida joylashgan bu korxonada, asosan rus millatiga mansub xodimlar ko'pchilikni tashkil qilgan.

Sovet boshqaruvi sotsialistik va kommunistik jamiyatni qurishda, ayollarni ishlab chiqarishga, ijtimoiy faollikka chaqirdi. Ayollar oilada, jamiyatda, davlat organlarida, fabrika, zavod va turli yo'nalishlarda o'z o'rinlarini topishdi. O'zbekistonning mehnatkash ayollari

hamma sohani egallashlari yil sayin oshib bordi. Respublikada mehnatkash ayollar soni 1,6 mln kishini, ya'ni jami ishchilarning 50 foizini tashkil etgan [8, 4-b].

1925-yil iyundagi RKP(b) MQ Tashkiliy byurosining "Sovet Sharqi xotin-qizlari o'rtasidagi ishlar bo'yicha vazifalar haqida"gi qaroriga muvofiq sovet hukumatining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish maqsadida mahalliy millat xotin-qizlarini sanoat ishlab chiqarishiga keng jalb qilishga kirishildi. Sovet hukumatining sanoatlashtirish siyosatini amalga tatbiq etish, bunda xotin-qizlardan, asosan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanish uchun komissarlik o'z ishini yo'lga qo'ydi. 1925-yil 4-iyunda O'zKP(b) MQ va O'zSSR Mehnat Xalq komissarligi xotin-qizlar mehnatini o'rganish jarayonida aniqlanishicha, Respublika bo'yicha 1925-yilda ishchilarning 4680 tasi (1600tasi o'zbek), ya'ni 9,7% ini ayollar tashkil etgan, shulardan 125 tasi, 0,2%i balog'atga yetmagan qizlardan iborat bo'lgan [9, 78-v]. O'zbekiston sanoatidagi ishchilarning 41 foizdan ziyodini, to'qimachilik sanoatida esa 80 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi [5, 14-b].

Umumiy ishlab chiqarishda 481 ta, oziq-ovqat sanoatida 902 kishi yoki 53,8% xotin-qiz qatnashgan. Keltirilgan aholining 50%i, jami 481 kishi malaka oshirgan. 119 ta malaka oshirgan ayollarning 24,74%i ishchi kurslarini tamomlagan. Ularning 16 tasi mahalliy ayollardan bo'lib, 33%ni tashkil etgan. 164 ayolning 34,8%i, mahalliy ayollarning 46 tasi yoki 9,7%i o'rta maxsus malakaga ega bo'lgan [10, 507].

1927-yil 14-yanvarda Markaziy komissiyaning moliya-iqtisodiyot bo'yicha yig'ilishi bo'lib o'tdi. Yig'ilish asosan to'rtta bosqichdan iborat bo'lgan. Ishlab chiqarishda ayollarni qatnashtirish, iqtisodda ayollarning rolini oshirish, fabrika va tekstil korxonalarni ochish, bog'cha, klublar, uylarga bolalarni joylashtirishdan iborat edi [11, 136-v] Qabul qilingan qaror va tashkil qilingan tadbirlar natijasida ishlab chiqarishda xotin-qiz kadrlar soni ko'paya boshladi. Jumladan, Samarqand shahrining "O'rtoq" tamaki fabrikasida ishlab turgan jami ishchilarning 50%ini, ya'ni 80 ta o'zbek xotin-qizlari ishlagan. 1927-yilda shaharda "Hujum" pillakashlik fabrikasi ishga tushirildi. Bu fabrikadagi ishchi xotin-qizlar ishchilar jamoasining 52,1 %ini tashkil qildi.

1926-yilda 27 xotin-qiz oliy o'quv yurtida tahsil oldi. Bir qator xotin-qizlar ishchi fakultetlariga qabul qilindilar. Sanoat sohasidagi ta'limni takomillashtirish uchun turli to'garaklar tashkil etildi. 1927-yilda O'zbekiston bo'yicha 37 to'garakda 50 xotin-qiz (barchasi bo'lib 304 kishi) mashg'ulotlar o'tgan bo'lsalar, bu raqam 1928-yilda esa 54 to'garakda 75 xotin-qiz (barchasi bo'lib 558 kishi) mashg'ulot o'tgan. Lekin, ba'zi to'garaklarda ta'lim uchun haq olinishi xotin-qizlar sonini keskin kamayib ketishiga sabab bo'ldi. 1929-yilda mahalliy millat xotin-qizlarining ko'pchiligi o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan [12, 73-b].

Masalan, Samarqand shahri shoyini qayta ishlash sanoat korxonasida 1927-yili xotin-qizlar salmog'i 80,3% bo'lsa, 1929-yilga kelib bu raqam 63,3% ni tashkil etdi. To'qimachilik sanoatida esa 1927-yildagi 38% dan 1929-yilga kelib, 32,9% ga kamayib ketdi. Oziq-ovqat tarmog'ida xotin-qizlar salmog'i 1927-yilda ishchi kuchining 10%ini tashkil qilgan bo'lsa, 1928-yilda 7,9% ga tushib qoldi. Shuningdek, qandolatchilikda 53,3%-52%, tikuvchilikda 32,2%-30,7%ga, poligrafiyada 14%-12,6%ga tushib qoldi [13, 309-310-b].

O'zbekistonda hunarmandchilik kooperativlariga 1926-yilda 648 nafar ayol a'zo bo'lgan, ushbu ko'rsatkich 1927-yilda 1874 nafarni, 1928-yilda 4253 nafarni, 1929-yilda 5248 nafarni tashkil etgan [14, 530-531-b]. Sovet hokimiyati mahalliy millatlardan bo'lgan ayollarni hunarmandchilik kooperativlariga jalb etish ishlariga alohida e'tibor bilan qaragan va bu bilan ayollarning ijtimoiy hayotdan uzilib qolmasligiga erishish ham ko'zda tutilgan, chunki ushbu sohada ayollar mehnati muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, gilamdo'zlik, chevarchilik, do'ppido'zlik, so'zanachilik, to'qimachilik, ipakchilikda ayollar mehnatidan keng foydalanilgan. Lekin mintaqada hali ancha mustahkam bo'lgan xo'jalik xususiyatlariga ko'ra va artellardagi mehnat sharoitlarining og'irligi sababli ayollarni kooperativlarga jalb etish ishlarida sustkashlik kuzatildi.

XX asr 20-30-yillarida Samarqand shahri va okrugi iqtisodiyotida hunarmandchilik sanoatining o'рни katta bo'lgan. Samarqand okrugi va shahrida kustar hunarmandchilik uyushmasining faoliyati yakka kosiblarni kooperativ ishlab chiqarish artellariga jalb qilishga qaratilgan va ayol kosiblarga siyosiy manfaatlarni ko'zlab alohida e'tibor berilgan [15, 4-v]. Samarqand "Turkiston-ipak" aksionerlik jamiyati 1925-yil 15-sentabrda savdo-sotiq, sanoat tizimiga oid qaror qabul qiladi. Toshkent orqali Markazga 1925-yil 7-oktabrda telegraf orqali telegramma yuboriladi. Unga ko'ra qo'g'oz manufakturasini bo'yicha amalga oshiriladigan chakana va yakka savdo, bo'lib sotish tizimida ro'y berayotgan kamchilikni bartaraf qilish uchun 15-sentabrdagi qarorni bekor qilish harakati boshlandi. Bunga sabab, qog'oz savdosida Samarqand birdaniga 5 ta vagon qog'oz uchun birdan qilinadigan to'lovni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lmagan. Agar chakana savdoga, bo'lib-bo'lib savdo qilinishga ruxsat berilsa, savdoni davom ettirish, aks holda to'xtatish aytilgan. "Krasniy Vostok" tomonidan yengillik berilmasa, savdoni to'xtatish keltirib o'tiladi. Mazkur shartnomalar imzolanishi aholiga ayniqsa ishchi kuchi xotin-qizlardan iborat korxonaga juda katta qiyinchilik keltirgan. Birinchidan, masala hal etilmasa, xotin-qizlar ishsiz qolishi, ish tugatilgandan keyin maosh olinmasligiga, natijada ijtimoiy hayotning keskin tushishiga sabab bo'lardi [16, 19-v].

1928-1929-xo'jalik yillarida O'zSSR kustar-hunarmandchilik uyushmasiga qarashli 82 artelning 2582 a'zosi bo'lib, ulardan 182 kishi xotin-qizlar edi. 1928-yilda kustar sanoatining

artellarida 26,7 mln rubllik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, 1929-yilda 36 mln rubllik mahsulot ishlab chiqarilgan [17, 320-b]. Samarqand shahri Yuqori Darg'om rayonidagi xotin-qizlar artellari 1927-1928-yillarda o'z qarzlarini batamom uzib, 1928-1929-yillarda 5000 so'm daromad qilgan. Jizzax, Yuqori Darg'om, Zomin va Oqdaryo rayonlarida, Samarqand okrugining boshqa bir qancha joylarida 13 ta pillachilik xotin-qizlar arteli tashkil etildi.

“Pravda Vostoka” gazetasining 1928-yil 2-aprelda chiqqan “Iste'molchiga qilingan hujumga qarshi” nomli maqolada keltirilishicha, O'zbekiston SSRda jami 472 ta savdo korxonalari bo'lgan. Shuningdek ushbu hujjatda, Samarqandda sotilayotgan buyumlar, mahsulot, manufakturalar va ularning narx-navosi haqida ham ma'lumot bo'lgan. Masalan, Obirahmat kooperativida sotiladigan 1 m. paxtalik kiyim 2 rubl 26k. bo'lib, buni markazdan belgilangan narxi 1r. 86k bo'lishi kerak edi. “O'zbektorg-O'zbeksavdo” № 3 korxonasida 1 metr paxtalik kiyim 2r 2k ni tashkil etgan [18, (1569)]. Ma'lumot o'rnida aytib o'tish kerakki, bu davrda bozor, savdo rastalarda raqobatga yo'l qo'yilmagan, sotiladigan buyumlar markazdan keltirilib, narxi belgilangan. Ammo, kamchiliklar ham yo'q bo'lmagan. Misol uchun yuqorida keltirilgan mahsulot Samarqandning qaysi hududiga sotilishi, xarid quvvati, masofa hisobga olinmagan. Natijada, mana shunday tushunmovchiliklar kelib chiqqan. Ishlab chiqarish, sanoat tizimida ham shunday kamchiliklar uchrab turgan. Yillar o'tishi bilan yengil sanoatda turar joy muammosi va maktabgacha tarbiya muassasalarining yetishmasligi, og'ir sanoatda esa ko'p jismoniy mehnat talab qilinishi xotin-qizlarni sanoatda ishlash imkoniyatini kamaytirgan. Bunday holning paydo bo'lishining obyektiv sabablari shunda ediki, og'ir jismoniy mehnatga asoslangan sanoat ishlab chiqarishining talablariga xotin-qizlar javob bera olmadilar. Natijada juda katta ijtimoiy muammolar kelib chiqdi. Xotin-qizlar organizmidagi turli kasalliklar kelib chiqishi, ularni ommaviy tarzda sanoat korxonalaridan ketishiga sabab bo'ldi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, XX asrning 20–30-yillarida Samarqand viloyatida xotin-qizlarni ishlab chiqarish va sanoat sohalariga jalb etish sovet hokimiyatining sanoatlashtirish siyosatining muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Bu davrda xotin-qizlarning to'qimachilik, ipakchilik, oziq-ovqat sanoati hamda hunarmandchilik kooperativlaridagi ishtiroki kengaydi, ularni kasb-hunarga o'rgatish va ishlab chiqarishga jalb etish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirildi.

Arxiv hujjatlari va statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarning ishlab chiqarishdagi faolligi tarmoqlar kesimida bir xil bo'lmagan. Ayrim sohalarda ularning ulushi ortgan bo'lsa, ayrim tarmoqlarda og'ir mehnat sharoiti, ijtimoiy-maishiy muammolar va ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani sababli pasayish kuzatilgan. Shu bois mazkur davrda xotin-qizlarning ishlab chiqarish va sanoatdagi ishtiroki bir tomondan

iqtisodiy taraqqiyot va sanoatlashtirish jarayoniga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, davlat siyosatining amaliy natijalari va mavjud muammolarini ham yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'z MA, R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 5579-hujjat, 144-varaqlar.
2. История Узбекской ССР. С древнейших времен до наших дней. Т., "Fan". 1974. С. 584.
3. O'z MA, 837-jamg'arma, 3-ro'yxat, 144-hujjat, 150-varaq.
4. Шукурова Х.С. Социализм и женщины Узбекистана. Т.: "Узбекистан". 1970. С. 201;
5. Дьяченко А. Чет эл Шарқ мамлакатларида хотин-қизлар ахволи. Т., "Қизил Ўзбекистон", "Правда Востока "Ўзбекистони сурх". 1955. С. 14.
6. "Samarqand tarixi". Toshkent, "Fan", 1970. 110-varaq.
7. SamVDA 260-jamg'arma, 2-ro'yxat, 2-ish. 81-varaq.
8. Лобачев А. И. Женщины Узбекистана в борьбе за научно-технический прогресс. Т. 1983. С. 4.
9. SamVDA, 1735-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3-hujjat. 78-varaq.
10. O'z MA, 86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 4434-hujjat, 507-varaq.
11. O'z MA, R-837-jamg'arma, 3-ro'yxat, 229-hujjat, 136-varaq.
12. Jo'rayeva N. D. O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida xotin-qizlarning o'rni(XX asrning 20-30-yillari). Diss. ... Т., 2004. В.73.
13. Коммунистическая партия Узбекистана в борьбе за решение женского вопроса в период строительство социализма. С. 309-310.
14. O'zbekiston tarixi, 1-kitob, eski nashr, Т., "Sharq". В. 530-531.
15. O'z MA R-8-jamg'arma, 5-ro'yxat, 12- hujjat, 4-varaq.
16. SamVDA 494-jamg'arma, 1-ro'yxat, 1- hujjat. 19-varaq.
17. O'zbekiston tarixi (Samarqand tarixi) IX jild. Т., "O'zbekiston". 2023. В. 320.
18. Pravda Vostoka. 1928. Aprel-iyun. №75. (1569).